

# Asqad Muxtor. Uyqu qochganda. Tundaliklar.

## Ikkinchi daftar & To'plamning to'liq matni

kh-davron.uz



*Устоз Асқад Мухторнинг “Уйқу қочганида...” деб номланган “тундалиги”нинг биринчи дафтари кеча – атоқли ёзувчи таваллудининг 95 йиллиги арафасида тақдим этган эдик. “Тундалик”нинг навбатдаги қисми – иккинчи дафтари тақдим қилар эканмиз, мутафаккир адибимизнинг туғилган куни билан яна бир карра унинг ижоди ихлосмандлари, шогирдларини қутлаймиз ва Оллоҳдан устозимизга раҳматлар тилаймиз. Атоқли адиб қаламидан тўкилган ва сизу бизга мерос қолган донишмандлик ва сабот чўғи сўнмасин!*

**Асқад Мухтор**  
**ТУНДАЛИКЛАР**  
**Иккинчи daftar**

Бизнинг даҳшатли цивилизациямиздан ташқари ҳамма замонларда шоир ва шеърий сўзнинг нечукдир ғайритабиий бир илоҳий куч билан боғлиқлигини тан олганлар. Мен шоирни пайғамбар деб атаган Пушкиннигина кўзда тутаётганим йўқ. Шоирнинг қалб бойлиги реал ҳаётини вазиятлардан устунлигини Гегель ҳам айтади. Шеллингнинг ёзишича, шеърий сўз туғдирган идеал дунёнинг бизга объектив дунё бўлиб кўриниши инсоннинг Илоҳ ҳақидаги абадий тушунчаси билан боғлиқ. Файласуф Новалис айтадики, “Шоир ва авлиё азалдан бир бўлган, лекин чинакам шоир

ҳали ҳам авлиё ва чинакам авлиё ҳали ҳам шоирдир”. Навоийнинг шеърий сўз ҳақидаги сатрларига қулоқ солинг:

*Чун бу насим эсди азал тоғидин,  
Мунча гул очилди жаҳон боғидин.*

Бошқа ўринда у шоирнинг “кўнгил Каъбаси”ни оламнинг қибласига ўхшатади ва илтижо қилади: “Ё раб, ани (сўзни) халқ дилафрўзи эт!”

Шоир салоҳиятини илоҳий кучга боғлаш тарих қаърига кирган сарингиз баландроқ янграйди. Юнон асотирларида Квасир деган илоҳий жонзод тилга олинади. Шундай доно эканки, дунёда у жавоб беролмайдиган бирорта савол йўқ экан. Шоирлар шоир бўлиш учун шу донишманд жонзоднинг қонидан асал ялар эканлар...

Хуллас, бу масала энг муқаддас китоблардаги “Аввал калом, у – Илоҳдандур!” деган ҳикматга бориб тақалади. Оллоҳ Одам Отага: “Ҳамма нарсани ўз номлари билан айтгил!” деб буюрган. Номлар, яъни сўзлар эса танзиҳ ва ташбеҳлардан – шеъриятдан иборат. Ўлжас Сулаймоновнинг айтишича, оқил ва ҳалол одамлар (жумладан, шоир ва олимлар) қадим туркларда бир сўз билан – “чалаби” деб, яъни “тангрисимон” деб аталганлар. Ҳомердан олдинги минг йиллардан – азалдан эсан бу насим! Ахир, ҳатто Ўрхун битиклари бармоқ вазнида ёзилган! Қуръони каримнинг шеърий сўз билан нозил бўлгани эса бу ақиданинг яна бир исботидир.

Наполеон, Ҳитлер, Кеннеди каби кўп зотларнинг қиладиган ишлари ва тақдирларини уч юз-беш юз йил олдин айтиб берган авлиё Нострадамус ҳам башоратларини катрен деган шеърий услубда ифодалаган.

“Ҳақиқат, эзгулик, гўзаллик” деган “учлик”ни Рабиндранат Тагор Кантдан олган, дейдилар. Бу – хато. Бу “учлик” асли қадимий ҳинд адабиётига хосдир. Шеърий сўз ва умуман, санъатдан завқ олиш

илоҳий ҳис экани, инсондаги тасаввур сеҳри азалий муқаддас ҳодиса экани Санскрит эстетикасининг асоси бўлган. Шива – рақс рамзи; Кришна – назму наво тангриси; табиат – эзгулик; Ганг – фалақдан оқиб тушади; ҳамдуна – хонумон; тангри Вишну ва Рама – содиқ донишманд; сигир – муқаддас... Буюк эпосларнинг табиат ва худоларга бундай боғлиқлиги бадиий сўзнинг илоҳий эканига ишончдан эмасмиди? Наҳотки, бу азалий ишончда жон бўлмаса?! Наҳотки, бунинг ҳаммаси эскириб қолди?..

\* \* \*

Таржима, айниқса, шеъриятда шартли нарса. Чунки шеърнинг ўзини ўгириш мумкин-у, миллий жанрни, шеърни қабул қилиш тарзини, анъаналарни, шеърга қарашни... яна кўп нарсаларни таржима қилиш, ҳатто тушунтириш ҳам амримаҳол. Масалан, Японияда, Малайзияда “танка”, “пантун”, “хайку” билан классик бўлганлар бор. Бизда бу турларнинг ҳамма талабларини (ўттиз бир ҳижо, тоқ сатр, яширин қофия ва бошқаларни) бажариб, эътибор қозониб кўринг-чи! Гап шаклдагина эмас, миллатнинг руҳий ўзига хосликлари, дунёқараши, зеҳнияти, нафис ва оний таассурот, мунг, ҳасрат, соғинч, сал киноя... яна айтаверсак, шеъриятга сингиган, лекин таржима қилиб бўлмайдиган талай жиҳатларда ҳамдир.

Хайкунавис ҳеч қачон сиёсат ё ижтимоий соҳага қалам урмайди, у – табиат ва инсонни кузатувчи, шу тарзда руҳга таъсир этувчи донишманд. Унинг ўқувчиси оддий майса баргига ё шабнам томчисига маҳлиё бўла биладиган одам...

\* \* \*

Умар Хайём майни куйлаган. Аммо буни Абу Нувоснинг ҳамриятлари, Манучеҳрнинг мусамматлари ва кўп сонли соқийномалар билан аралаштирмаслик керак. Хурсандчилик майхўрлиги бошқа, аламзадалик майхўрлиги бошқа. Хайём кайфи бениҳоя аламли ва фожеий кайф: инсон ўлимга маҳкум, у бир лаҳза

бўлса ҳам лаззат излаши керак. Чинакам шодлик лаҳзаларни гулдек узиб эмас, Данте айтган абадий сўлмас гулзорга кўз тикиб яшайди. Абадий сўлмас гулзор эса – умид. Хайёмда инсоннинг худодан бўлак умиди йўқ.

Хайём рубоийлари – фоний банданинг жавобсиз фарёдларидир.

\* \* \*

Сукротнинг “Республика”си, Форобийнинг “Мадинатул-фозила”си, Томас Моорнинг “Утопия”си, Кампанелланинг “Қуёш шаҳри”, Беконинг “Янги Атлантида”си, Кабенинг “Икарияга саёҳати”... Дунёда шундай ўнлаб асарлар бор. Булар – ижтимоий утопиялардир. Диний-ахлоқий, фанний-техникавий ва севги-муҳаббат утопияларини айтмайсизми! Булар – инсон орзу-хаёлининг эзгу парвозлари. Бизнинг “утопия” – “хаёлпарастлик” деган атамаларимиз уларни ерга уради. Аслида, булар одамзотнинг идеал излашидир. Идеал эса ҳар қандай тараққиётнинг гарови.

\* \* \*

Донжуанлар, фаустлар, мажнунлар, прометейлар, искандарлар, жюльетталар кўп бўлган. Лекин уларни фақат Байрон ва Пушкин, Ҳёте ва Ҳейне, Навоий ва Низомий, Эсхил ва Шекспир номлари билан боғлаймиз. Бошқа муаллифларда булар ҳаётда ёки тарихда бўлган нарса каби қабул қилинади. Фақат даҳолар қўлига тушгандагина “факт” муаммога айланади. Биз энди буни классика деб атаймиз.

\* \* \*

“Гулистон”да ишлар эдим. Маҳмуд Саъдий деган ходимимиз бозорда китоб айирбошлаётган экан, милиция ушлаб олиб кетибди. У жуда билимдон, китобхўр; биз уни Шайх деб атар эдик... Менинг

илтимосим билан милиционер идорага келди, ёшгина лейтенант экан.

Гапни узоқдан бошламоқчи бўлдим:

– Ибн Сино Бухоронинг китоб растасида Форобийнинг Арастуга шарҳларини топиб олганда хурсандчилигидан бир зумга ҳушини йўқотган экан...

– Форобий деган шоирни эшитганман, у ҳам сизда ишлайдими?

– Йўқ, бизда фақат Шайх Саъдий ишлайди.

Ҳазил-мутойиба ўтмади. Аниқ гап қилдим:

– Бу йигит уйланганидан келинни кухняга тушириб келган. Чунки уч хонали уйининг ҳамма хоналари лиқ тўла қитоб бўлган. У шунақа китоб жинниси.

– Жиннилигига справкаси борми?

\* \* \*

“Нур алан-нур” деган яхши ибора бор. Уни кўпинча “Нур устига аъло нур” деб нодонларча бузиб ишлатадилар.

“Устувор” – мустаҳкам, пойдор, давомли деган сўз. Биз уни устунлик, яъни “приоритет” маъносида ишлатамиз: “устувор йўналишлар”, “қонун устуворлиги”... “Устун йўналишлар”, “қонун устунлиги” деб, оддийгина ўзбекча ва тўғри гапиришга нима етсин!

“Кўча одамлар билан гавжум”, дейдилар. Ваҳоланки, “одамлар билан гавжум”, “қўйлар билан гавжум” деб бўлмайди. Чунки “гавжум”нинг ўзи “одам кўп” дегани.

“Фаолият кўрсатишни амалга оширдилар”, “шарофати натижасида”, “рақобат кураши”, “устидан кулди”... Бундай “нодир” кашфиётларни санайверсангиз, сон мингта. Ёшларнинг, айниқса, мухбирларнинг тилдаги пала-партишликларидан ҳар гал ранжийман. Ахир, тилимиз – шакланган буюк тарихий тил. Ҳеч бўлмаса, унинг оқ сочли бобо

ёшини ҳурмат қилиш керак. у юз йил эмас, беш юз ёки минг йил эмас, ўн беш, ҳатто йигирма асрлик тарихга эга.

Ўн олти аср олдин тошга ўйиб ёзилган Ўрхун битикларини ўқинг: “Отим Элтуғон Тутук. Бан тангри элимга элчи эртим. Олти боғ будунга бег эртим... Тангридаги кунга, ердаги элимга бўкмадим, айрилдим...”

Қандай содда, тиниқ жуилалар! Фақат ҳозирги тилда бир-иккитагина кичик изоҳга муҳтож: “тангри эл” – давлат, империя; “будун” – халқ; “бўкмадим” – тўймадим.

\* \* \*

Тарихдан маълумки, шиъа ва суннийлар ўртасида кўп низолар, ҳатто қонли тўқнашувлар ҳам юз берган. Аммо, менинг кузатишимча, маърифатли темурийлар даврида бундай мазҳабий ихтилофларда муросаи мадора ва ҳатто бетарафлик майли устун бўлган. Бунга далиллар сероб.

Чунончи, Мағриб юриши пайтида Амир Темур тасаввуфда “Қосими Анвар” номини олган машҳур шиъа алломаси Шайх Саййид Муъиниддин Алини қабул қилади. Хуросонда катта нуфузли бу зоти шарифнинг суҳбати Амир Темурга шу қадар ёқиб қоладики, унинг илтимоси билан Соҳибқирон Кичик Осиёда олинган минглаб асирларни уй-уйларига қайтариб юборади.

Сўнг Қосими Анвар Шоҳруҳ билан низода айбланиб, Самарқандга келиб қолади ва суннийларнинг ашаддий муҳолифи бўлишига қарамай, Мирзо Улуғбекнинг илмий даврасида катта обрў қозонади. Охирги темурийлардан Султон Ҳусайн ҳам, бошқа ободончиликлар қатори, Хўжаҳайрондаги “Имом Али мақбараси”ни муҳташам Мозори Шарифга айлантирган...

Бунда гап Темурнинг она томонидан гўё ҳазрат Алига бориб тақалишида эмас, албатта. Бу гап деярли афсона. Мазҳабий ихтилофлардаги муросаи мадорани темурийзодаларнинг маърифий-маданий ва инсонийлик даражаси билан изоҳлаш керак.

\* \* \*

Ажабки, етти-саккиз йилдан бери бирорта ҳам асар ўзбекчадан русчага таржима қилинмабди. Бу соҳанинг билгичлари умуман йўқолиб кетди.

Алам қиладиган жиҳати шундаки, мен ўн йиллаб Москвада ҳам, Тошкентда ҳам шу ишнинг мутасаддиларидан бири бўлганман. Ўзбек асарларини рус тилига таржима қилишга бағишланган анжуманларда мутахассислар, ёзувчилар қатнашар эди.

“Шўролар тарқаб кетди...” дерсиз. Гап унда эмас, ўзбек асарларини рус тилига ўгириш Улуғ Пётр давридаёқ бошланган. Пётр топшириғи билан Тоболга келган офицер шу ерлик битта мулла ёрдамида Абулғозихоннинг “Шажарайи турк” асарини таржима қилади. 1730 йилда эса Т.Кер шу асарни туркийдан тўлиқ русчага ўгиради. Умуман, “Шажарайи турк” энг кўп таржима қилинган асарлардан. Ўша даврлардаёқ уни машҳур шоир В.Тредиаковский, кейин Н.Чернишевскийнинг дўсти Г.Саблуков (у Чернишевскийга арабий, форсий ва туркийдан таълим берган), А.Туманский ва яна кўплар таржима қилган. Таржимонларга Иброҳим Халфа, Али Козимбек сингари туркийзабон олимлар кўмак берганлар. “Қутадғу билик” (В.Радлов), Яссавийнинг “Ҳикматлар”и, Машраб ғазаллари (Н.Микошин), “Бобурнома” (Н.Пантусов), Махтумқули шеърлари ва бошқалар рус тилига XIX асрдаёқ қисман таржима қилинган эди. ундан кейинги даврларда бу ишнинг нақадар кенг ривожланиб кетганини яхши биласиз.

Маданиятнинг шундай анъанавий ва миқёсли бир соҳаси йўқолиб кетса-я! Мен буни тушунишдан ожизман...

\* \* \*

Мумтоз лирикада маҳбубанинг тасвири албатта қошу кўз, яноғу дудоқ, холу зулфдан бошланади. Нима учун шундай?

Маълумки, тасаввуфда бандаи солиҳнинг йўли шариат, тариқат, маърифат ва ҳақиқат босқичларидан иборат. Маҳбубанинг жамоли – ваҳтадул-вужуд йўлидаги орзу. Аммо, тасаввуф мураккаб. Унинг дунёвийликка мойил сулуклари (Ғиждувоний, Нақшбандий тариқатлари) ҳам кўп. Реал маҳбуба бўлмаса, унинг илоҳий рамзи қаёқдан келиб чиқарди? Шоир ботиний назар билан дунёвий маҳбубанинг қалбига, сир-синоатига, ҳис-туйғуларига интилади. Бу (илмул-яқин) эса, аввало, юзни очиш (мукошафа), кейин кўзни кўриш (муъайяна) ва сўнгра ақл кўзи билан ғайбни, яъни сирли ҳисларни туюш (мушоҳада) босқичларидан иборат. Нажмиддин Кубро инсоний муҳаббатнинг бу илмини “басира” деб атайди. Ваҳдатул-вужуд сингари бу орзу ҳам ушалавермайди, албатта. “Кўр” шоирларнинг кўплиги (Ҳомер, Рудакий, Ал-Маарий, Шамсиддин Закий...) балки шундандир? Афсоналар эса уларни чинакам “сўқир”га чиқарган бўлиши ҳам мумкин...

\* \* \*

Ўтган рус ҳамда Ғарб адабиёти ва санъатида ҳамма асарлар бир турда анъанавий инсоний эди: Пушкин, Тургенев, Бальзак, Флобер, Бах, Чайковский, Достоевский, Толстой, Рембрант, Репин, Жек Лондон, Гончаров, Марк Твен, Чехов...

Эндиликда ўша буюк асосий Санъат парча-парча бўлиб бўлиниб кетди: авангардизм, футуризм, символизм, декадентлик, модернизм, сюрреализм, акмеизм, имажинизм, иррационализм, абсурдизм, ультраизм, фрейдизм, кубизм, экзистенциализм, экспрессионизм, импрессионизм, абстракционизм...



Қўйинг-чи, ҳамма “изм”лар бор, фақат гуманизм ғолиб чиқса бас...  
Шундай бораверса, у бутунлай тугаб кетса эҳтимол...

\* \* \*

Рассомми, мусаввирми?

Қуръони каримда Оллоҳнинг номлари бирма-бир саналиб “...ал-Холиқу ал-Мусаввиру” дейилади. Демак, У инсонни тупроқдан яратувчигина эмас, руҳият ва ҳислар билан безаб, тасвир қилувчи ҳамдир. Ҳаким Санойи у ҳақда бундай ёзади:

*“...3-онки гил мазлумаст ва дил равшан,  
Гили ту гулханастан ва дил гулшан”.*

Яъни: тупроқ – зулмат, дил эса равшан; тупроғинг ўт-олов, дил эса – гулшан.

Бу жиҳатдан, расм солиб, шакл берувчи рассомдан кўра, дил ойнасига расм солиб, руҳият ва туйғулар билан равшан этувчи мусаввир атамасини қўллаш, чамамда, маъқулроқ.

\* \* \*

Вақт ўтиши билан биров ақллироқ бўлади, биров – каттароқ.

\* \* \*

Шеърни таҳлил қила бошласалар, ғашимга тегади. Баҳорги соф ҳавонинг кимёвий таркибини ҳам текшириш мумкин. Аммо, ундан кўра, шундай кўкрак тўлатиб нафас олган яхшироқ эмасми?

\* \* \*

Бизда ҳозир бор-будимизни рад қилиш авж олган. Ваҳоланки, тап-тақир ерда ҳеч вақо пайдо бўлмайди. Эски мафкуранинг таъсири бор деб, ҳамма нарсани инкор қилишнинг ўзи ҳам бир мафкура

эмасми? Биз бадииятнинг барча намуналарини ардоқлашимиз керак.

Бадиияттагина эмас, илмда, фалсафада ва динда ҳам энг буюк ва табаррук сиймолар шундай қилганлар. Ҳатто ғайридинлар ибратли меросни тан олганлар. Яҳудийлар ўз динларига Миср маъжусийларининг барча қадриятларини қабул қилганлар. Форобий, Беруний каби алломаларимиз бош эгиб ҳурмат қилган ўнлаб афлотунлар мусулмон эмас эди-ку?!

\* \* \*

Мўъжиза – сир – билим – ҳақиқат. Булар шу тартибда бир-бирини инкор қилади ва бир-бирисиз яшаёлмайди.

\* \* \*

Биз Шарқ адабиётининг Ғарбга, айниқса, мумтоз шеъриятга таъсири ҳақида қандайдир тор, пароканда бир тарзда фикр юритамиз. Тўғри, кўп номлар, асарлар, қиёслашар (“Лайли ва Мажнун” – “Ромео ва Жульетта”) бизга маълум: Гюгонинг “Шарқ тароналари”, Ҳётенинг “Шарқ девони”, Байроннинг шарқона дostonлари, Адам Мицкевичнинг “Қирим сонетлари”, Пушкиннинг “Қуръондан иқтибос”, “Боғчасарой фаввораси” асарлари, Сергей Есениннинг “Форс тароналари” туркуми, Михаил Лермонтовнинг Кавказ дostonлари; Ҳофиз, Саъдий, Фирдавсий, Жомий, Навоий ва бошқа улуғ зотларга кўплаб бағишловлар, тақлидлар... Санаб битиргисиз. Лекин, таъсир нега бу қадар бепоён? Шарқ даҳосининг сеҳри нимада эканини англаш учун ушбу ҳодисани кенг миқёсда, адабий оқим ва усулларнинг ҳаракат жараёнида тадқиқ этиш керак.

Шарқ шеърияти – муҳаббат ва меҳр тўла, гўзал ва ҳассос, юксак бадиий рамз ва ташбеҳларга бой, эркин, инсоний, теран фалсафий, анъанавий романтик шеърият. Қадимдан шундай. У асрлар давомида Ғарб адабиётининг романтик руҳини бир неча бор

қутқариб қолди. Ғарбда аввал эллинизм таъсиридаги романтика жонланди. Лекин, бу юксак ва бақувват эстетик оқимни дастлаб хоч (салиб) юришлари, қилич-қалқонли рицарлар, инквизиция гулханлари, қонли қирғинлар бўғиб ташлади. Энг содиқ романтиклар Шарққа суяниб қолдилар. “Кучли ориентал оқим тирик эди”, дейди Гегель. “Бу табиий дунё шахсни қутқарди”, дейди Руссо. Романтика яна оёққа туриб, авжга минганда эса, унга шартли қолипларга солинган шафқатсиз классицизм ва рационализм догмалари халақит берди. Кузатишларимизга қараганда, Ғарб романтикасини бу балолардан ҳам ўша “табиий дунё”, ўша “ориентал оқим”, яъни Шарқнинг беназир гўзал, эркин, романтик шеърияти сақлаб қолди...

Бу – мавзунинг биргина жиҳатига шаъма, холос. Миқёсли мулоҳазаларга туртки керак...

\* \* \*

Боласини йўқотган она юраги ёрилиб ўлиши мумкин. Номуси, иззатнафси топталган қизнинг бошидан керосин қуйиб, ўзига ўт қўйганини кўп эшитганмиз. Таҳқирланган, тухматга учраган одам аламдан ўзини осиб ўлдиради... Энди айтинг, тан яраси ёмонми ё дил дардимми?

\* \* \*

Кузатишимча, одамлар гапираётган гапнинг, тахминан, етмиш-саксон фоизи ортиқча экан. Кимдандир эшитган эдим: бир товушни талаффуз қилиш учун фалончи энергия сарф бўлади, деб. Ундай бўлса, ҳарф ва рақамлар бу жиҳатдан ҳам жуда катта иқтисодий-молиявий кашфиёт экан. Бўлмаса, масалан, “учта уй” дейиш ўрнига фикрни тушунтириш учун ўша учта уйни кўчириб-кўтариб келтириш керак бўларди... Свифтнинг бир сатираси эсимга тушади. Лапут бойлари энергияни тежаш учун, айтиш керак бўлган нарсаларни ўзлари билан олиб юришармиш. Ҳангомалашгани борганда хизматкорлари ҳамма лаш-лушларини елкалаб келишар экан...

Албатта, бу – сатира. Аммо мен шу ўринда ҳам санъатни ўйлайман. Биз мазмун ва шакл ҳақида кўп гапиримиз. Аслида, бунинг биринчиси – мантиқий тафаккур, иккинчиси – ҳиссий тафаккур. Иккинчиси (нарсалар ва ҳаракатлар) биринчисидан олдин юради. Иккаласининг бирлиги бадиий образ бўлади.

Японларда матнсиз, “базабон” кинофильмлар кўп бўлади, кузатганмисиз?

... Бу менинг касал бўлиб, тилдан қолганимдан кейинги (сизга худо кўрсатмасин!) уйқусизлигимда миямга келган пала-партиш фикрлар. Кечирасиз.

\* \* \*

Биз нимаики ёзсак, кимдандир иқтибос оламиз. Фалон донишманд бундай деган, фалон классик ундай деган... Улуғларнинг “афоризм”ларини бутун-бутун китоблар ҳолида нашр этамиз. Ваҳоланки, уларнинг кўпи аллақачон ҳеч қанақа “суянчиқ”қа муҳтож бўлмаган, ҳаммага маълум оддий ҳақиқатлар. Бу дидактик консерватизм оригинал тафаккур ривожига халақит бермайдими? Мен улуғларга қарши эмасман, аммо ўз фикрлаш салоҳиятимизни ҳам ишга солишимиз керак-да! Улуғлар айтган деб, оддий ҳақиқатларни мақола ва китобларимиз, шиорларимизда такрорлайверамизми? “Соф ҳаво ҳаммамизга керак!” деб ҳеч ким алвонларга катта қилиб ёзиб қўймайди-ку?!

\* \* \*

Тасаввур ҳам бир инстинкт. Лекин бу – олий савқи табиий. У идрокдан ташқарида ногоҳ пайдо бўлиб, ниманидир қамрашга интилади-ю, нима экани, номи ҳали онгда йўқ. У ҳали хира бир ички сезим. Аммо мавжудлиги аниқ, уни фақат кўчма маънода, образли ё рамзий тарзда белгилаш мумкин.

Ҳайвоний инстинкт хавф-хатарни олдиндан пайқагандай, ижодий тасаввур ҳам узоқдаги фикрни гўё бир ўзгарувчан булут парчаси каби кўнгил кўзгусида кўриб, гоҳ чақмоқ сингари ўтли чизиқлар, гоҳ қандайдир этюдлар, қиёфалар, композициялар, тақдирлар тарзида шакллантира бошлайди. Бироқ, идрок тасаввурни тўла қабул қилмаслиги ҳам мумкин. олий инстинкт сезими кўпинча ҳалиги ўзгарувчан булут парчасидай тарқаб ҳам кетади.

Тубан инстинт такрорланиб пайдо бўлади. Олий инстинкт эса балқиб-нурланиб юзага чиқади. Иккаласи ҳам кучли, жасоратли бўлиши мумкин. аммо, иккинчисигина баъзан катта ғоя, доҳиёна ҳақиқатга эврилади.

\* \* \*

Тасаввуф ҳақида гапирилганда, у кўпинча пантеизмга, неоплотонизмга қиёс қилинади. Ундай бўлса, нима учун бу оқимларга амал қилган Данте, Петрарка асрлардан бери улуғландию, тасаввуфга бунча қора чапланди? Француз маърифатчилиги бутун оқим сифатида кўкларга кўтарилди-ю, нима учун бизнинг жаидларга “буржуй мафкурачилари” деган (гўё “йўқсил маърифатчилари” ҳам бўладигандай!) қора тамға босилди?

Менимча, бу ва бу сингари камситишлар бизларга мустамлака деб қарашнинг аломатлари эди.

\* \* \*

Танқидчи ва адабиётшунослар асосан асар ҳақида гапирадилар. Ёзувчи ҳақида эса...

Ваҳоланки, асар ёзувчидан униб чиқади; фарзандидай унда туғилади, улғаяди, камол топади; у фарзандини авайлайди, ҳимоя қилади. Асар – ёзувчининг тақдири; керак бўлганда ёзувчи қурбон бўлишга ҳам тайёр. Унинг бу ғайритабиий садоқати, ёзмасдан

туролмаслиги, руҳиятга, фалсафага, мушоҳадага мойиллиги, шахси, феъли, услуби, қарашлари, дарди, қийналишлари ҳеч кимни қизиқтирмайди. Ёзувчи ўз шахси ва ўзгаларнинг шахси билан бирикиб кетган – асар унинг субъекти. У бошқа ишда ҳам ишлаши мумкин (ёзувчи ҳеч қачон бадавлат бўлмаган), аммо унинг моҳияти, эҳтироси – ижод. Қобилияти қанча катта бўлса, шунча катта куч сарф қилади. У – беихтиёр фидойи; ҳам бахтиёр, ҳам бахтсиз – бу унинг иродасига боғлиқ эмас.

Бу ҳақда кўп гапириш мумкин, аммо танқидчилар...

\* \* \*

Амир Темур Ҳофиз Шерозий билан учрашганда, шоирнинг машҳур мисраларини эсга олиб: “Ҳали сенмисан жононнинг битта холига Самарқанду-Бухорони бағишлаб юборган?!” деб дарғазаб бўлганмиш, деган гаплар юради. Бу – ақлга сиғмайдиган уйдирма.

Аслида, бу аввалига дўстона ҳазил-мутойибадан бошланган жиддий суҳбат бўлган. Бу ўша, шоирнинг дастлабки жавобидан ҳам кўриниб турибди: “Саховат, тақсир, азбаройи сахийлигимиздан шундай юпун бўлиб ўтирибмиз-да!..”

Шоир оддий хаттотлик билан кун кўради.

Ҳофизнинг Амир Темур билан учрашуви бежиз эмасди. Машҳур шерозлик унча-мунча ҳукмдор билан учрашавермаган. Ҳатто Бағдод султони Аҳмад Жалойир, Бенгал султони Ғиёсиддин, султон Маҳмуд Баҳманий ва бошқа ҳукмдорларнинг таклифларини рад этган. У буюк лирик шоир бўлиш билан бирга, бевосита ижтимоий мавзулардаги фожеий, аламли асарлари билан ҳам машҳур бўлган; Хурмуз кўрфазида ҳинд кемасининг ҳалокати тўғрисидаги, икки ўғлининг бевақт ўлими ҳақидаги, ҳукмдорлар томонидан ноҳақ бадарға қилинган бир дўстини ёқлаб ёзган жасоратли ғазаллари шулар жумласидандир. Табиийки, шуҳратли шоирнинг бу жиҳати

ҳам Соҳибқиронни қизиқтирган. Шунинг учун профессор А.Арберри “Мумтоз форс адабиёти” китобида бундай дейди: “Бу икки буюк шахснинг учрашуви адабиётдагина эмас, тарихда ҳам жуда муҳим воқеа эди”.



*Ustoz Asqad Muxtorning “Uyqu qochganida...” deb nomlangan “tundaligi”ning birinchi daftarini kecha – atoqli yozuvchi tavalludining 95 yilligi arafasida taqdim etgan edik. “Tundalik”ning navbatdagi qismi – ikkinchi daftarini taqdim qilar ekanmiz, mutafakkir adibimizning tug’ilgan kuni bilan yana bir karra uning ijodi ixlosmandlari, shogirdlarini qutlaymiz va Ollohdan ustozimizga rahmatlar tilaymiz. Atoqli adib qalamidan to’kilgan va sizni bizga meros qolgan donishmandlik va sabot cho’g’i so’nmasin!*

***Asqad Muxtor***  
**TUNDALIKLAR**  
**Ikkinchi daftar**

Bizning dahshatli sivilizatsiyamizdan tashqari hamma zamonlarda shoir va she’riy so’zning nechukdir g’ayritabiiy bir ilohiy kuch bilan bog’liqligini tan olganlar. Men shoirni payg’ambar deb atagan Pushkinnigina ko’zda tutayotganim yo’q. Shoirning qalb boyligi real hayotiy vaziyatlardan ustunligini Gegel` ham aytadi. Shellingning yozishicha, she’riy so’z tug’dirgan ideal dunyoning bizga ob’ektiv dunyo bo’lib ko’rinishi insonning Iloh haqidagi abadiy tushunchasi bilan bog’liq. Faylasuf Novalis aytadiki,

“Shoir va avliyo azaldan bir bo’lgan, lekin chinakam shoir hali ham avliyo va chinakam avliyo hali ham shoirdir”. Navoiyning she’riy so’z haqidagi satrlariga quloq soling:

*Chun bu nasim esdi azal tog’idin,  
Muncha gul ochildi jahon bog’idin.*

Boshqa o’rinda u shoirning “ko’ngil Ka’basi”ni olamning qiblasiga o’xshatadi va iltijo qiladi: “YO rab, ani (so’zni) xalq dilafro’zi et!”

Shoir salohiyatini ilohiy kuchga bog’lash tarix qa’riga kirgan saringiz balandroq yangraydi. Yunon asotirlarida Kvasir degan ilohiy jonzod tilga olinadi. Shunday dono ekanki, dunyoda u javob berolmaydigan birorta savol yo’q ekan. Shoirlar shoir bo’lish uchun shu donishmand jonzodning qonidan asal yalar ekanlar...

Xullas, bu masala eng muqaddas kitoblardagi “Avval kalom, u – Ilohdandur!” degan hikmatga borib taqaladi. Olloh Odam Otaga: “Hamma narsani o’z nomlari bilan aytgil!” deb buyurgan. Nomlar, ya’ni so’zlar esa tanzih va tashbehlardan – she’riyatdan iborat. O’ljas Sulaymonovning aytishicha, oqil va halol odamlar (jumladan, shoir va olimlar) qadim turklarda bir so’z bilan – “chalabi” deb, ya’ni “tangrisimon” deb atalganlar. Homerdan oldingi ming yillardan – azaldan esgan bu nasim! Axir, hatto O’rxun bitiklari barmoq vaznida yozilgan! Qur’oni karimning she’riy so’z bilan nozil bo’lgani esa bu aqidaning yana bir isbotidir.

Napoleon, Hitler, Kennedi kabi ko’p zotlarning qiladigan ishlari va taqdirlarini uch yuz-besh yuz yil oldin aytib bergan avliyo Nostradamus ham bashoratlarini katren degan she’riy uslubda ifodalagan.

“Haqiqat, ezgulik, go’zallik” degan “uchlik”ni Rabindranat Tagor Kantdan olgan, deydilar. Bu – xato. Bu “uchlik” asli qadimiy hind adabiyotiga xosdir. She’riy so’z va umuman, san’atdan zavq olish ilohiy his ekani, insondagi tasavvur sehri azaliy muqaddas hodisa ekani Sanskrit estetikasining asosi bo’lgan. Shiva – raqs ramzi; Krishna – nazmu navo tangrisi; tabiat – ezgulik; Gang – falakdan oqib tushadi; hamduna – xonumon; tangri



Vishnu va Rama – sodiq donishmand; sigir – muqaddas... Buyuk eposlarning tabiat va xudolarga bunday bog'liqligi badiiy so'zning ilohiy ekaniga ishonchdan emasmidi? Nahotki, bu azaliy ishonchda jon bo'lmasa?! Nahotki, buning hammasi eskirib qoldi?..

\* \* \*

Tarjima, ayniqsa, she'riyatda shartli narsa. Chunki she'rning o'zini o'girish mumkin-u, milliy janrni, she'rni qabul qilish tarzini, an'analarni, she'rga qarashni... yana ko'p narsalarni tarjima qilish, hatto tushuntirish ham amrimahol. Masalan, Yaponiyada, Malayziyada "tanka", "pantun", "xayku" bilan klassik bo'lganlar bor. Bizda bu turlarning hamma talablarini (o'ttiz bir hijo, toq satr, yashirin qofiya va boshqalarni) bajarib, e'tibor qozonib ko'ring-chi! Gap shakldagina emas, millatning ruhiy o'ziga xosliklari, dunyoqarashi, zehniyati, nafis va oniy taassurot, mung, hasrat, sog'inch, sal kinoya... yana aytaversak, she'riyatga singigan, lekin tarjima qilib bo'lmaydigan talay jihatlarda hamdir.

Xaykunavis hech qachon siyosat yo ijtimoiy sohaga qalam urmaydi, u – tabiat va insonni kuzatuvchi, shu tarzda ruhga ta'sir etuvchi donishmand. Uning o'quvchisi oddiy maysa bargiga yo shabnam tomchisiga mahliyo bo'la biladigan odam...

\* \* \*

Umar Xayyom mayni kuylagan. Ammo buni Abu Nuvosning hamriyatlari, Manuchehrning musammatlari va ko'p sonli soqiynomalar bilan aralashtirmaslik kerak. Xursandchilik mayxo'rliqi boshqa, alamzadalik mayxo'rliqi boshqa. Xayyom kayfi benihoya alamli va fojeiy kayf: inson o'limga mahkum, u bir lahza bo'lsa ham lazzat izlashi kerak. Chinakam shodlik lahzalarni guldek uzib emas, Dante aytgan abadiy so'lmas gulzorga ko'z tikib yashaydi. Abadiy so'lmas gulzor esa – umid. Xayyomda insonning xudodan bo'lak umidi yo'q. Xayyom ruboiylari – foniy bandaning javobsiz faryodlaridir.

\* \* \*

Suqrotning “Respublika”si, Forobiyning “Madinatul-fozila”si, Tomas Moorning “Utopiya”si, Kampanellaning “Quyosh shahri”, Bekoning “Yangi Atlantida”si, Kabening “Ikariyaga sayohati”...

Dunyoda shunday o'nlab asarlar bor. Bular – ijtimoiy utopiyalardir. Diniy-ahloqiy, fanniy-texnikaviy va sevgi-muhabbat utopiyalarini aytmysizmi! Bular – inson orzu-xayolining ezgu parvozlari. Bizning “utopiya” – “xayolparastlik” degan atamalarimiz ularni yerga uradi. Aslida, bular odamzotning ideal izlashidir. Ideal esa har qanday taraqqiyotning garovi.

\* \* \*

Donjuanlar, faustlar, majnunlar, prometeylar, iskandarlar, jyl`ettalar ko'p bo'lgan. Lekin ularni faqat Bayron va Pushkin, Hyote va Heyne, Navoiy va Nizomiy, Esxil va Shekspir nomlari bilan bog'laymiz. Boshqa mualliflarda bular hayotda yoki tarixda bo'lgan narsa kabi qabul qilinadi. Faqat daholar qo'liga tushgandagina “fakt” muammoga aylanadi. Biz endi buni klassika deb ataymiz.

\* \* \*

“Guliston”da ishlar edim. Mahmud Sa'diy degan xodimimiz bozorda kitob ayirboshlayotgan ekan, militsiya ushlab olib ketibdi. U juda bilimdon, kitobxo'r; biz uni Shayx deb atar edik...

Mening iltimosim bilan militsioner idoraga keldi, yoshgina leytenant ekan. Gapni uzoqdan boshlamoqchi bo'ldim:

– Ibn Sino Buxoroning kitob rastasida Forobiyning Arastuga sharhlarini topib olganda xursandchiligidan bir zumga hushini yo'qotgan ekan...

– Forobiy degan shoirni eshitganman, u ham sizda ishlaydimi?

– Yo'q, bizda faqat Shayx Sa'diy ishlaydi.

Hazil-mutoyiba o'tmadi. Aniq gap qildim:

– Bu yigit uylanganidan kelinni kuxnyaga tushirib kelgan. Chunki uch xonali uyining hamma xonalari liq to'la qitob bo'lgan. U shunaqa kitob

jinnisi.

– Jinniligiga spravkasi bormi?

\* \* \*

“Nur alan-nur” degan yaxshi ibora bor. Uni ko’pincha “Nur ustiga a’lo nur” deb nodonlarcha buzib ishlatadilar.

“Ustuvor” – mustahkam, poydor, davomli degan so’z. Biz uni ustunlik, ya’ni “prioritet” ma’nosida ishlatamiz: “ustuvor yo’nalishlar”, “qonun ustuvorligi”... “Ustun yo’nalishlar”, “qonun ustunligi” deb, oddiygina o’zbekcha va to’g’ri gapirishga nima yetsin!

“Ko’cha odamlar bilan gavjum”, deydilar. Vaholanki, “odamlar bilan gavjum”, “qo’ylar bilan gavjum” deb bo’lmaydi. Chunki “gavjum”ning o’zi “odam ko’p” degani.

“Faoliyat ko’rsatishni amalga oshirdilar”, “sharofati natijasida”, “raqobat kurashi”, “ustidan kuldi”... Bunday “nodir” kashfiyotlarni sanayversangiz, son mingta. Yoshlarning, ayniqsa, muxbirlarning tildagi palapartishliklaridan har gal ranjiyman. Axir, tilimiz – shakllangan buyuk tarixiy til. Hech bo’lmasa, uning oq sochli bobo yoshini hurmat qilish kerak. u yuz yil emas, besh yuz yoki ming yil emas, o’n besh, hatto yigirma asrlik tarixga ega.

O’n olti asr oldin toshga o’yib yozilgan O’rxun bitiklarini o’qing: “Otim Eltug’on Tutuk. Ban tangri elimga elchi ertim. Olti bog’ budunga beg ertim... Tangridagi kunga, yerdagi elimga bo’kmadim, ayrildim...”

Qanday sodda, tiniq juilalar! Faqat hozirgi tilda bir-ikkitagina kichik izohga muhtoj: “tangri el” – davlat, imperiya; “budun” – xalq; “bo’kmadim” – to’ymadim.

\* \* \*

Tarixdan ma’lumki, shi’a va sunniylar o’rtasida ko’p nizolar, hatto qonli to’qnashuvlar ham yuz bergan. Ammo, mening kuzatishimcha, ma’rifatli temuriylar davrida bunday mazhabiy ixtiloflarda murosai madora va hatto betaraflik mayli ustun bo’lgan. Bunga dalillar serob.

Chunonchi, Mag’rib yurishi paytida Amir Temur tasavvufda “Qosimi Anvar”

nomini olgan mashhur shi'a allomasi Shayx Sayyid Mu'iniddin Alini qabul qiladi. Xurosonda katta nufuzli bu zoti sharifning suhbatini Amir Temurga shu qadar yoqib qoladiki, uning iltimosi bilan Sohibqiron Kichik Osiyoda olingan minglab asirlarni uy-uyulariga qaytarib yuboradi.

So'ng Qosimi Anvar Shohruh bilan nizoda ayblanib, Samarqandga kelib qoladi va sunniylarning ashaddiy muxolifi bo'lishiga qaramay, Mirzo Ulug'bekning ilmiy davrasida katta obro' qozonadi.

Oxirgi temuriylardan Sulton Husayn ham, boshqa obodonchiliklar qatori, Xo'jahayrondagi "Imom Ali maqbarasi"ni muhtasham Mozori Sharifga aylantirgan...

Bunda gap Temurning ona tomonidan go'yo hazrat Aliga borib taqalishida emas, albatta. Bu gap deyarli afsona. Mazhabiy ixtiloflardagi murosai madorani temuriyzodalarning ma'rifiy-madaniy va insoniylik darajasi bilan izohlash kerak.

\* \* \*

Ajabki, yetti-sakkiz yildan beri birorta ham asar o'zbekchadan ruschaga tarjima qilinmabdi. Bu sohaning bilgichlari umuman yo'qolib ketdi.

Alam qiladigan jihati shundaki, men o'n yillab Moskvada ham, Toshkentda ham shu ishning mutasaddilaridan biri bo'lganman. O'zbek asarlarini rus tiliga tarjima qilishga bag'ishlangan anjumanlarda mutaxassislar, yozuvchilar qatnashar edi.

"Sho'rolar tarqab ketdi..." dersiz. Gap unda emas, o'zbek asarlarini rus tiliga o'girish Ulug' Pyotr davridayoq boshlangan. Pyotr topshirig'i bilan Tobolga kelgan ofitser shu yerlik bitta mulla yordamida Abulg'ozixonning "Shajarayi turk" asarini tarjima qiladi. 1730 yilda esa T.Ker shu asarni turkiydan to'liq ruschaga o'giradi. Umuman, "Shajarayi turk" eng ko'p tarjima qilingan asarlardan. O'sha davrlardayoq uni mashhur shoir V.Trediakovskiy, keyin N.Chernishevskiyning do'sti G.Sablukov (u Chernishevskiyga arabiy, forsiy va turkiydan ta'lim bergan), A.Tumanskiy va yana ko'plar tarjima qilgan. Tarjimonlarga Ibrohim Xalfa, Ali Kozimbek singari turkiyzabon olimlar ko'mak berganlar. "Qutadg'u bilik" (V.Radlov), Yassaviyning "Hikmatlar"i, Mashrab g'azallari (N.Mikoshin), "Boburnoma"

(N.Pantusov), Maxtumquli she'rlari va boshqalar rus tiliga XIX asrdayoq qisman tarjima qilingan edi. undan keyingi davrlarda bu ishning naqadar keng rivojlanib ketganini yaxshi bilasiz.

Madaniyatning shunday an'anaviy va miqyosli bir sohasi yo'qolib ketsa-ya! Men buni tushunishdan ojizman...

\* \* \*

Mumtoz lirikada mahbubaning tasviri albatta qoshu ko'z, yanog'u dudoq, xolu zulfdan boshlanadi. Nima uchun shunday?

Ma'lumki, tasavvufda bandai solihning yo'li shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlaridan iborat. Mahbubaning jamoli – vahtadul-vujud yo'lidagi orzu. Ammo, tasavvuf murakkab. Uning dunyoviylikka moyil suluklari (G'ijduvoniylar, Naqshbandiy tariqatlari) ham ko'p. Real mahbuba bo'lmasa, uning ilohiy ramzi qayoqdan kelib chiqardi? Shoir botiniy nazar bilan dunyoviy mahbubaning qalbiga, sir-sinoatiga, his-tuyg'ulariga intiladi. Bu (ilmul-yaqin) esa, avvalo, yuzni ochish (mukoshafa), keyin ko'zni ko'rish (mu'ayyana) va so'ngra aql ko'zi bilan g'aybni, ya'ni sirli hislarni tuyush (mushohada) bosqichlaridan iborat. Najmiddin Kubro insoniy muhabbatning bu ilmini "basira" deb ataydi. Vahdatul-vujud singari bu orzu ham ushalavermaydi, albatta. "Ko'r" shoirlarning ko'pligi (Homer, Rudakiy, Al-Maariy, Shamsiddin Zakiy...) balki shundandir? Afsonalar esa ularni chinakam "so'qir"ga chiqargan bo'lishi ham mumkin...

\* \* \*

O'tgan rus hamda G'arb adabiyoti va san'atida hamma asarlar bir turda an'anaviy insoniy edi: Pushkin, Turgenev, Bal`zak, Flober, Bax, Chaykovskiy, Dostoevskiy, Tolstoy, Rembrant, Repin, Jek London, Goncharov, Mark Tven, Chexov...

Endilikda o'sha buyuk asosiy San'at parcha-parcha bo'lib bo'linib ketdi: avangardizm, futurizm, simvolizm, dekadentlik, modernizm, syurrealizm, akmeizm, imajinizm, irratsionalizm, absurdizm, ul`traizm, freydizm, kubizm, ekzistentsializm, ekspressionizm, impressionizm, abstraksionizm...

Qo'ying-chi, hamma "izm"lar bor, faqat gumanizm g'olib chiqsa bas...  
Shunday boraversa, u butunlay tugab ketsa ehtimol...

\* \* \*

Rassommi, musavvirmi?

Qur'oni karimda Ollohning nomlari birma-bir sanalib "...al-Xoliqu al-Musavviru" deyiladi. Demak, U insonni tuproqdan yaratuvchigina emas, ruhiyat va hislar bilan bezab, tasvir qiluvchi hamdir. Hakim Sanoyi u haqda bunday yozadi:

*"...z-onki gil mazlumast va dil ravshan,  
Gili tu gulxanast va dil gulshan".*

Ya'ni: tuproq – zulmat, dil esa ravshan; tuprog'ing o't-olov, dil esa – gulshan.

Bu jihatdan, rasm solib, shakl beruvchi rassomdan ko'ra, dil oynasiga rasm solib, ruhiyat va tuyg'ular bilan ravshan etuvchi musavvir atamasini qo'llash, chamamda, ma'qulroq.

\* \* \*

Vaqt o'tishi bilan birov aqlliroq bo'ladi, birov – kattaroq.

\* \* \*

She'rni tahlil qila boshlasalar, g'ashimga tegadi. Bahorgi sof havoning kimyoviy tarkibini ham tekshirish mumkin. Ammo, undan ko'ra, shunday ko'krak to'latib nafas olgan yaxshiroq emasmi?

\* \* \*

Bizda hozir bor-budimizni rad qilish avj olgan. Vaholanki, tap-taqir yerda hech vaqo paydo bo'lmaydi. Eski mafkuraning ta'siri bor deb, hamma narsani inkor qilishning o'zi ham bir mafkura emasmi? Biz badiiyatning barcha namunalarini ardoqlashimiz kerak.

Badiyatdagina emas, ilmda, falsafada va dinda ham eng buyuk va tabarruk siymolar shunday qilganlar. Hatto g'ayridinlar ibratli merosni tan olganlar. Yahudiylar o'z dinlariga Misr ma'jusiylarining barcha qadriyatlarini qabul qilganlar. Forobiy, Beruniy kabi allomalarimiz bosh egib hurmat qilgan o'nlab afitunlar musulmon emas edi-ku?!

\* \* \*

Mo»jiza – sir – bilim – haqiqat. Bular shu tartibda bir-birini inkor qiladi va bir-birisiz yashayolmaydi.

\* \* \*

Biz Sharq adabiyotining G'arbga, ayniqsa, mumtoz she'riyatga ta'siri haqida qandaydir tor, parokanda bir tarzda fikr yuritamiz. To'g'ri, ko'p nomlar, asarlar, qiyoslashar ("Layli va Majnun" – "Romeo va Jul'etta") bizga ma'lum: Gyugoning "Sharq taronalari", Hyotening "Sharq devoni", Bayronning sharqona dostonlari, Adam Mitskevichning "Qirim sonetlari", Pushkinning "Qur'ondan iqtibos", "Bog'chasaroy favvorasi" asarlari, Sergey Yeseninining "Fors taronalari" turkumi, Mixail Lermontovning Kavkaz dostonlari; Hofiz, Sa'diy, Firdavsiy, Jomiy, Navoiy va boshqa ulug' zotlarga ko'plab bag'ishlovlar, taqlidlar... Sanab bitirgisiz. Lekin, ta'sir nega bu qadar bepoyon? Sharq dahosining sehri nimada ekanini anglash uchun ushbu hodisani keng miqyosda, adabiy oqim va usullarning harakat jarayonida tadqiq etish kerak.

Sharq she'riyati – muhabbat va mehr to'la, go'zal va hassos, yuksak badiiy ramz va tashbehlarga boy, erkin, insoniy, teran falsafiy, an'anaviy romantik she'riyat. Qadimdan shunday. U asrlar davomida G'arb adabiyotining romantik ruhini bir necha bor qutqarib qoldi. G'arbda avval ellinizm ta'siridagi romantika jonlandi. Lekin, bu yuksak va baquvvat estetik oqimni dastlab xoch (salib) yurishlari, qilich-qalqonli ritsarlar, inkvizitsiya gulxanlari, qonli qirg'inlar bo'g'ib tashladi. Eng sodiq romantiklar Sharqqa suyanib qoldilar. "Kuchli oriental oqim tirik edi", deydi Gegel`. "Bu tabiiy dunyo shaxsni qutqardi", deydi Russo. Romantika yana oyoqqa turib, avjga minganda esa, unga shartli qoliplarga solingan shafqatsiz

klassitsizm va ratsionalizm dogmalari xalaqit berdi. Kuzatishlarimizga qaraganda, G'arb romantikasini bu balolardan ham o'sha "tabiiy dunyo", o'sha "oriental oqim", ya'ni Sharqning benazir go'zal, erkin, romantik she'riyati saqlab qoldi...

Bu – mavzuning birgina jihatiga sha'ma, xolos. Miqyosli mulohazalarga turtki kerak...

\* \* \*

Bolasini yo'qotgan ona yuragi yorilib o'lishi mumkin. Nomusi, izzat-nafsi toptalgan qizning boshidan kerosin quyib, o'ziga o't qo'yganini ko'p eshitganmiz. Tahqirlangan, tuhmatga uchragan odam alamdanda o'zini osib o'ldiradi... Endi ayting, tan yarasi yomonmi yo dil dardimi?

\* \* \*

Kuzatishimcha, odamlar gapirayotgan gapning, taxminan, yetmish-sakson foizi ortiqcha ekan. Kimdandir eshitgan edim: bir tovushni talaffuz qilish uchun falonchi energiya sarf bo'ladi, deb. Unday bo'lsa, harf va raqamlar bu jihatdan ham juda katta iqtisodiy-moliyaviy kashfiyot ekan. Bo'lmasa, masalan, "uchta uy" deyish o'rniga fikrni tushuntirish uchun o'sha uchta uyni ko'chirib-ko'tarib keltirish kerak bo'lardi... Sviftning bir satirasi esimga tushadi. Laput boylari energiyani tejash uchun, aytish kerak bo'lgan narsalarni o'zlari bilan olib yurisharmish. Hangomalashgani borganda xizmatkorlari hamma lash-lushlarini yelkalab kelishar ekan...

Albatta, bu – satira. Ammo men shu o'rinda ham san'atni o'ylayman. Biz mazmun va shakl haqida ko'p gapiramiz. Aslida, buning birinchisi – mantiqiy tafakkur, ikkinchisi – hissiy tafakkur. Ikkinchisi (narsalar va harakatlar) birinchisidan oldin yuradi. Ikkalasining birligi badiiy obraz bo'ladi.

Yaponlarda matnsiz, "bazabon" kinofil'mlar ko'p bo'ladi, kuzatganmisiz? ... Bu mening kasal bo'lib, tildan qolganimdan keyingi (sizga xudo ko'rsatmasin!) uyqusizligimda miyamga kelgan pala-partish fikrlar. Kechirasiz.



\* \* \*

Biz nimaiki yozsak, kimdandir iqtibos olamiz. Falon donishmand bunday degan, falon klassik unday degan... Ulug'larning "aforizm"larini butun-butun kitoblar holida nashr etamiz. Vaholanki, ularning ko'pi allaqachon hech qanaqa "suyanchiq"qa muhtoj bo'lmagan, hammaga ma'lum oddiy haqiqatlar. Bu didaktik konservatizm original tafakkur rivojiga xalaqit bermaydimi? Men ulug'larga qarshi emasman, ammo o'z fikrlash salohiyatimizni ham ishga solishimiz kerak-da! Ulug'lar aytgan deb, oddiy haqiqatlarni maqola va kitoblarimiz, shiorlarimizda takrorlayveramizmi? "Sof havo hammamizga kerak!" deb hech kim alvonlarga katta qilib yozib qo'ymaydi-ku?!

\* \* \*

Tasavvur ham bir instinkt. Lekin bu – oliy savqi tabiiy. U idrokdan tashqarida nogoh paydo bo'lib, nimanidir qamrashga intiladi-yu, nima ekani, nomi hali ongda yo'q. U hali xira bir ichki sezim. Ammo mavjudligi aniq, uni faqat ko'chma ma'noda, obrazli yo ramziy tarzda belgilash mumkin.

Hayvoniy instinkt xavf-xatarni oldindan payqaganday, ijodiy tasavvur ham uzoqdagi fikrni go'yo bir o'zgaruvchan bulut parchasi kabi ko'ngil ko'zglasida ko'rib, goh chaqmoq singari o'tli chiziqlar, goh qandaydir etyudlar, qiyofalar, kompozitsiyalar, taqdirlar tarzida shakllantira boshlaydi. Biroq, idrok tasavvurni to'la qabul qilmasligi ham mumkin. oliy instinkt sezimi ko'pincha haligi o'zgaruvchan bulut parchasiday tarqab ham ketadi.

Tuban instinkt takrorlanib paydo bo'ladi. Oliy instinkt esa balqib-nurlanib yuzaga chiqadi. Ikkalasi ham kuchli, jasoratli bo'lishi mumkin. ammo, ikkinchisigina ba'zan katta g'oya, dohiyona haqiqatga evriladi.

\* \* \*

Tasavvuf haqida gapirilganda, u ko'pincha panteizmga, neoplatonizmga qiyos qilinadi. Unday bo'lsa, nima uchun bu oqimlarga amal qilgan Dante,

Petrarka asrlardan beri ulug'landi-yu, tasavvufga buncha qora chaplandi? Frantsuz ma'rifatchiligi butun oqim sifatida ko'klarga ko'tarildi-yu, nima uchun bizning jadidlarga "burjuy mafkurachilari" degan (go'yo "yo'qsil ma'rifatchilari" ham bo'ladiganday!) qora tamg'a bosildi? Menimcha, bu va bu singari kamsitishlar bizlarga mustamlaka deb qarashning alomatlari edi.

\* \* \*

Tanqidchi va adabiyotshunoslar asosan asar haqida gapiradilar. Yozuvchi haqida esa...

Vaholanki, asar yozuvchidan unib chiqadi; farzandiday unda tug'iladi, ulg'ayadi, kamol topadi; u farzandini avaylaydi, himoya qiladi. Asar – yozuvchining taqdiri; kerak bo'lganda yozuvchi qurbon bo'lishga ham tayyor. Uning bu g'ayritabiiy sadoqati, yozmasdan turolmasligi, ruhiyatga, falsafaga, mushohadaga moyilligi, shaxsi, fe'li, uslubi, qarashlari, dardi, qiynalishlari hech kimni qiziqtirmaydi. Yozuvchi o'z shaxsi va o'zgalarning shaxsi bilan birikib ketgan – asar uning sub'ekti. U boshqa ishda ham ishlashi mumkin (yozuvchi hech qachon badavlat bo'lmagan), ammo uning mohiyati, ehtirosi – ijod. Qobiliyati qancha katta bo'lsa, shuncha katta kuch sarf qiladi. U – beixtiyor fidoyi; ham baxtiyor, ham baxtsiz – bu uning irodasiga bog'liq emas.

Bu haqda ko'p gapirish mumkin, ammo tanqidchilar...

\* \* \*

Amir Temur Hofiz Sheroziy bilan uchrashganda, shoirning mashhur misralarini esga olib: "Hali senmisan jononning bitta xoliga Samarqandu-Buxoroni bag'ishlab yuborgan?!" deb darg'azab bo'lganmish, degan gaplar yuradi. Bu – aqlga sig'maydigan uydirma.

Aslida, bu avvaliga do'stona hazil-mutoyibadan boshlangan jiddiy suhbat bo'lgan. Bu o'sha, shoirning dastlabki javobidan ham ko'rinib turibdi:

“Saxovat, taqsir, azbaroyi saxiyeligimizdan shunday yupun bo’lib o’tiribmiz-da!..”

Shoir oddiy xattotlik bilan kun ko’radi.

Hofizning Amir Temur bilan uchrashuvi bejiz emasdi. Mashhur sherozlik uncha-muncha hukmdor bilan uchrashavermagan. Hatto Bag’dod sultoni Ahmad Jaloyir, Bengal sultoni G’iyosiddin, sulton Mahmud Bahmaniy va boshqa hukmdorlarning takliflarini rad etgan. U buyuk lirik shoir bo’lish bilan birga, bevosita ijtimoiy mavzulardagi fojeiy, alamli asarlari bilan ham mashhur bo’lgan; Xurmuz ko’rfazida hind kemasining halokati to’g’risidagi, ikki o’g’lining bevaqt o’limi haqidagi, hukmdorlar tomonidan nohaq badarg’a qilingan bir do’stini yoqlab yozgan jasoratli g’azallari shular jumlasidandir. Tabiiyki, shuhratli shoirning bu jihati ham Sohibqironni qiziqtirgan. Shuning uchun professor A.Arberri “Mumtoz fors adabiyoti” kitobida bunday deydi: “Bu ikki buyuk shaxsning uchrashuvi adabiyotdagina emas, tarixda ham juda muhim voqea edi”.

*Asqad Muxtor. Uyqu qopchganda (Tundaliklar) by Khurshid Davron on Scribd*

(Tashriflar: umumiy 579, bugungi 1)